

**BOSHLANG`ICH SINFLARDA ONA TILI O`QITISH
METODIKASINING DOLZARB MASALALARI**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Boshlang'ich talim yo'nalishi

*6-BT-22 guruh talabasi **Toshova Shahlo Qurbonmurod qizi***

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

O`zbek tili va adabiyot kafedrasi

Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasining dolzARB masalalari, ahamiyati, maqsadi va vazifalari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: metodika, ona tili o'qitish metodikasi, savod o'rgatish metodikasi, o'qish metodikasi, grammatika, fonetika, so'z yasalishini o'rganish metodikasi, nutq o'stirish metodikasi.

KIRISH.

Ona tili o'qitish metodikasining metodologik asosi borliqni bilish nazariyasidir. Bu fanning bosh vazifasi o'quvchilarning o'zbek tili lug'at boyligini to'liq o'zlashtirib olishlarini ta'minlashdir. Ma'lumki, jamiyatda til kishilar o'rtaqidagi aloqaning zaruriy vositasidir. Tilning aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati uzuksiz ortib boradi. Til borliqni oqilona, mantiqiy bilish vositasidir. Til birliklari yordamidagina bilish jarayonida umumlashtirish, tushunchani muhokama va xulosa bilan bog'lash amalga oshiriladi. Til va nutq tafakkur bilan uzviy bog'liqdir. Tilni egallash va nutq o'stirish bilan o'quvchining fikrlash qobiliyati ham o'sib boradi.

ASOSIY QISM.

Bilish nazariyasiga ko'ra analitik-sintetik ishlar yordamida til ustida kuzatishdan umumiyl xulosa chiqarishga, nazariy ta'rif va qoidaga, shular asosida yana og'zaki va yozma tarzdagi nutqiy aloqaga, to'g'ri yozuv va to'g'ri talaffuzga

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

o'tiladi. O'quvchilar jonli nutqiy aloqaga to'g'ri talaffuz va to'g'ri yozuvni elementar nazariy ma'lumotlar asosida amaliy egallash orqali kirishadilar, til materiallarini kuzatish, tahlil qilish orqali elementar nazariy qoidalar chiqaradilar, o'rgangan va o'zlashtirilgan nazariy qoidalarni amaliyotga ongli ravishda tatbiq etadilar. Maktabda ona tili o'qitish metodikasining bunday yo'nalishi haqiqatni bilish qonuniyatlariga ham, hozirgi zamon didaktikasi vazifalariga ham mos keladi.

Umumiyoq o'rta ta'limning bir bosqichi bo'lgan boshlang'ich ta'lim 1-4-sinflarni o'z ichiga oladi. Milliy dasturda ta'kidlanganidek, bu bosqichda ta'limning yangicha tizimini va mazmunini shakllantirish uchun quyidagilar zarur:

- o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqlashtirilgan yondashuvni joriy etish;

- ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmularini yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash va h.k.

Milliy dasturda ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish bo'yicha ta'kidlangan ko'rsatmalar, uzluksiz ta'limni ta'minlash borasidagi islohotlarni amaliyotga tatbiq etish boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Ona tili o'qitish metodikasi psixologiya va pedagogika ma'lumotlariga ham tayanadi. Metodikaning masalalarini hal etishda pedagogik ilmlar ham yordam beradi. Shuning uchun ham psixologiya va pedagogika fanlari metodikaning metodologik asosi hisoblanadi.

Til o'qitish metodikasi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri nutq madaniyatini rivojlantirishdir. Nutqning ifodaliligi va ta'sirchanligini (so'z urg'usi va mantiqiy urg'u, pauza va ovoz tembri, nutq san'ati. tovush, bo'g'in, so'z, gaplarni ravon aytish, gap mazmuniga ko'ra darak, so'roq, buyruq, undov ohangi bilan aytma olish) ta'minlashga xizmat qiluvchi ko'nikma va malakalar ham ona tili mashg'ulotlarida shakllanadi. Tilning barcha bo'limlari ham nutqiy mahoratni rivojlantirishda keng imkoniyatga ega. Masalan: "Fonetika"ni o'rganishda so'zdagi ma'lum bir tovushni o'zgartirib, tovushdosh so'zlar hosil qilish, shuningdek,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

asosdosh, qo'shimchadan qofiyadosh, ohangdosh so'zlar yasash, ularning lug'aviy ma'nolari hamda ma'no guruhlari ustida ishlash o'quvchi so'z boyligini oshiradi, nutqiy malakalarini shakllantiradi.

Ona tili o 'qitish metodikasida o 'quv rejalarini loyihasini qanday tuzish masalasi doimiy dolzarb muammolardan hisoblanadi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda kompleks loyihalarga asoslangan o'quv rejalarini tuzilib, unda hayotning turli sohalariga oid bilimlar — o'quv mavzulari va o 'quv predmetlari bir kompleksga birlashtiriladi va yaxlitlanadi. Ona tilini o'rganishda yillik reja, mavzuiy reja va kundalik dars rejasidan foydalaniлади. Yillik reja dastur va darslik asosida tuzilib, malaka oshirish institutlari orqali tarqatiladi. Mazkur reja asosida yarim yillik va choraklik rejalar o'qituvchilar metod birlashmasi tomonidan yoki alohida o 'qituvchi tomonidan tuziladi. Ushbu rejalgarda (til materiallaridan ba'zilarini olib tashlash yoki qo'shishdan tashqari) ijodiy metodik o'zgarishlar kiritilishi mumkin.

XULOSA.

Milliy dasturda ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish bo'yicha ta'kidlangan ko'rsatmalar, uzlusiz ta'limni ta'm inlash borasidagi islohotlarni amaliyatga tatbiq etish boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sariyev Sh. Savod o'rgatish darslarida nutq o'stirish. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali № 4. - Toshkent, 1997.
2. Babanskiy Yu. K. Hozirgi zamон umumiy ta'lim mакtabida o'qitish metodlari. - T.: O'qituvchi, 1990.
3. G'afforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. Alifbe (Savod). - T.: O'qituvchi, 1999.